

SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**Usmonova Adiba**

Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Biznesni boshqarish yo'nalishi 4 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18729996>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada hududdagi iqtisodiy, ijtimoiy va mehnat resurslari jihatlarini tahlil qilinib, tadbirkorlik subyektlarining o'sish sur'ati, faol korxonalar va oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni, shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va infratuzilma imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, bozor va infratuzilmani rivojlantirish kabi omillar Surxondaryo viloyatida kichik biznesning samarali rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali hududda ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar, tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish.

Kirish

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu soha aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish hamda hududlar iqtisodiy rivojiga turtki berishda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kichik biznesning tez moslashuvchanligi va kam mablag' talab qilishi uni iqtisodiy o'sishning muhim manbai sifatida namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq va kredit tizimini soddalashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholining tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirishga va yangi biznes subyektlarining paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq.

Jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, infratuzilmaning holati, bozor talabining mavjudligi, mehnat resurslari hamda tadbirkorlik tajribasi ushbu sohaning rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning to'g'ri yo'lga qo'yilishi kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, aholini ish bilan ta'minlash, daromad manbalarini ko'paytirish va hududlarning rivojlanishida ushbu sohaning o'rni katta.

Kichik biznes yirik korxonalarga nisbatan kam mablag' talab qilgani va tez tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli ko'plab fuqarolar aynan tadbirkorlik orqali o'z faoliyatini boshlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotning asosiy tayanchi sifatida baholab, o'z chiqishlarida bu sohaning ahamiyatini ko'p bor ta'kidlab kelgan.

Jumladan, u shunday degan: “Agar tadbirkorlik rivojlansa, iqtisodiyot rivojlanadi, iqtisodiyot rivojlansa, xalqimizning hayoti yanada farovon bo‘ladi.”¹ Prezidentning fikricha, tadbirkorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar yangi ish o‘rinlari ochilishiga va aholi bandligining oshishiga xizmat qiladi. Bu borada u quyidagilarni alohida qayd etgan: “Tadbirkor – bu yangi ish o‘rni, yangi daromad va jamiyat uchun foyda manbai hisoblanadi.”² Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida davlat idoralari tadbirkorlarga to‘siq bo‘lmasligi, aksincha, ularning faoliyatiga yordam berishi kerakligini ta’kidlab keladi. U bu borada: “Davlat idoralari tadbirkorga xalal bermasdan, unga ko‘makchi bo‘lishi lozim.”deya fikr bildirgan.

Bundan tashqari, Prezident 2025-yil 19-martda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi farmonni imzoladi. Ushbu hujjat kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va eksport salohiyatini kuchaytirishni maqsad qilgan. Dastur doirasida har bir tuman va shahar bo‘yicha maslahat xizmatlari ko‘rsatadigan “acceleratsiya ofislari” ochiladi va kichik tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratiladi, shu jumladan yuqori texnologik mahsulot ishlab chiqaruvchilarga davlat mulki 10.000 kvadrat metrgacha bepul beriladi. Prezident tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham alohida farmonlar qabul qilingan. Masalan, 2025-yil 14-fevralda imzolangan farmonda **Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi** tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, uning kapitali 100 million AQSh dollariga teng bo‘ladi va kamida 50.000 nafar yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish rejalashtirilgan.

Prezidentning yana bir farmoni tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga 4 trillion so‘mlik mablag‘ yo‘naltirishni nazarda tutadi. Bu yordam orqali kamida 5.000 ta yangi tadbirkorlik loyihalari amalga oshirilishi, shuningdek, tijorat banklari orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan. Bu kabi farmonlar mamlakatda biznesni qo‘llab-quvvatlash siyosati kuchaytirilayotganini, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratilayotganini va har xil darajadagi subyektlar — yoshlar, yangi boshlovchi tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari — uchun aniq imkoniyatlar taqdim etilayotganini ko‘rsatadi. Ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning istiqbolli rivojlanishiga xizmat qiladi va aholining iqtisodiy faolligini oshirishga turtki bo‘ladi.

Surxondaryo viloyati misolida qaraydigan bo‘lsak, bu hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Viloyat aholisi sonining ko‘pligi, mehnat resurslarining yetarliligi, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanib borayotgani tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga zamin yaratmoqda. So‘nggi yillarda viloyatda oilaviy tadbirkorlik, dehqon xo‘jaliklari, kichik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish subyektlari soni oshib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Jumladan, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, kredit va subsidiyalar, soliq yengilliklari, infratuzilmaning yaxshilanishi hamda tadbirkorlik uchun yaratilgan qulay sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, aholining tadbirkorlik bo‘yicha bilim va tajribasi, bozor talabini to‘g‘ri baholay olish qobiliyati ham ushbu sohaning rivojiga ta’sir etadi. Surxondaryo viloyatida kichik biznesning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Chunki aynan shu soha orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, yoshlar va ayollar bandligi ta’minlanmoqda, aholining daromadlari oshmoqda.

¹ O‘zbekiston Prezidenti rasmiy sayti — “Supporting entrepreneurship – our strategic path” (19.03.2025).

² 20-avgust 2025 yilda Yangi Toshkentda tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan davlat mukofotlari topshirish marosimi va tadbirkorlar kuni.

Bu esa hududda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim hisoblanadi. Ushbu ishda aynan shu omillar tahlil qilinib, hududiy xususiyatlardan kelib chiqib xulosa va takliflar berishga harakat qilinadi.

Surxondaryo viloyati — O'zbekistonning janubida joylashgan hudud bo'lib, aholi soni bo'yicha 2025-yilning boshiga kelib taxminan **2.950.000 dan ortiq kishini** tashkil etadi.

Viloyatda aholining katta qismi mehnatga layoqatli yoshlar bo'lib, ularning ko'pchiligi tadbirkorlikni boshlashga qiziqadi. Hudud qishloq xo'jaligi uchun qulay iqlim sharoitiga ega bo'lgani uchun agrar va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari asosiy kichik biznes sektorlari hisoblanadi. Surxondaryo statistikasiga ko'ra, viloyatda 2024-yil oxiriga kelib **3.900 dan ortiq oilaviy korxonalar** ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning aksariyati savdo, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, 2025-yilda viloyat bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YHM) ko'rsatkichining o'sish sur'ati ijobiy dinamika ko'rsatmoqda, bu esa kichik biznes subyektlari sonining oshishiga turtki bermokda.

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir qator omillarga bog'liq. Masalan, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari va mahalliy dasturlar tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Infratuzilmaning yaxshilanishi, bozor talabining oshishi va mehnat resurslaridan samarali foydalanish ham bu yo'nalishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq viloyatda tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ba'zi muammolar ham mavjud.

Jumladan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, marketing bo'yicha bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish zarurati sezilmoqda. Shuningdek, bozorni tahlil qilish va mahsulotlarni sotish tizimini rivojlantirish masalalari ham tadbirkorlar oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Shu sababli Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalani tahlil etish orqali hududda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat daromad va bandlikni oshirish, balki kambag'illikni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Jahon adabiyotlari va tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes subyektlari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy barqarorlikni yaratishda asosiy vositalardan biridir.

Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va qullab-quvvatlash tizimining shakllanish bosqichlari rossiya iqtisodchisi V.N.Bykova dissertatsiyasi tadqiqotida bevosida 4 davrga ajratildi. Dastlabki davr, xorij davlatlarida 1929- 1938- yilgi inqirozga qarshi choralari ishlab-chiqilganidan song, turli mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash vositalari shakllandi. Ikkinchi davr XX asrning ikkinchi yarmiga tug'ri kelib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari Yaponiya, AQSh, G'arbiy Yevropada boshlangan. Bu davrda kichik biznesni rivojlantirishga vakolatli davlat organlari, davlat apparati va maxsus boshqaruv organlari shakllantirilib, kichik biznesni qullabquvvatlovchi davlat infratuzilmasi yaratildi6 . Bir qator rossiyalik olimlardan O.V.Gleba va V.S. Shpekalar kichik va o'rta korhonalarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning muammoli jixatlarini o'rgangan holda, quyidagi fikirlari ilgari surilgan.

“Kichik va oʻrta biznesning innovatsion faoliyatini qoʻllab-quvvatlash nuqtai nazaridan shuni takidlash kerakki, ushbu tadbirkorlik subyektlarining rivojlangan mamlakatlarda faoliyat kursatishi ularning muvaffaqiyoti innovatsiyalar bilan chambarchas bogʻligini koʻrsatadi”.

Demak, kichik biznes boshqaruvida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi, ayniqsa raqamli iqtisodiyotni shakillantirish sharoitida oʻta dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Fikrimizning isboti sifatida iqtisodchi E.I.Levinaning qarashlarini keltirish oʻrinli. “Kichik va oʻrta biznesni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning rivozhlanishi bilan iqtisodiyot demonopolizatsiyasi, yangi ish oʻrinlarining paydo boʻlishi, hududlarda bozorlarning shakillanishi, va innovatsion faoliyatning rivojlanishini taʼminlaydi”.³

“The Role of Business Education in Promoting Social Entrepreneurship and Poverty Alleviation in Low-Income Communities” maqolasi ijtimoiy tadbirkorlikning kambagʻillikni kamaytirishda muhim rol oʻynashini koʻrsatadi. Tadqiqotda taʼkidlanishicha, biznes taʼlimi va tadbirkorlik koʻnikmalarini rivojlantirish orqali odamlar oʻz imkoniyatlarini oshiradi, ijtimoiy tashabbuslar bilan shugʻullanish imkoniyatiga ega boʻladi va jamiyatning past daromadli qatlamlarida iqtisodiy faollikni ragʻbatlantiradi. Bu esa nafaqat oilaning daromad manbaini oshiradi, balki mahalliy hududlarning iqtisodiy barqarorligiga hissa qoʻshadi. Maqoladagi kuzatuvlarga koʻra, 2020–2022 yillar davomida biznes taʼlimi dasturlarida qatnashgan shaxslar oʻrtasida biznes reja tuzish, moliyaviy hisobotlarni yuritish va bozorni tahlil qilish boʻyicha koʻnikmalar sezilarli darajada oshgan. Bu koʻnikmalar esa tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli boshlash va davom ettirishga xizmat qiladi. Biznes taʼlimi orqali oʻrgangan shaxslar oʻz jamiyatlarida ijtimoiy maqsadli tashabbuslarni yoʻlga qoʻyishga koʻproq intiladi. Maqolada keltirilishicha, ijtimoiy tadbirkorlar odatda kambagʻillik darajasi yuqori boʻlgan hududlarda, masalan, 30 foizdan oshiq kam daromadli oilalar istiqomat qiladigan tumanlarda, sogʻliqni saqlash, taʼlim yoki qishloq xoʻjaligidagi yangicha yechimlarni taklif qilishadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, biznes taʼlimi olgan shaxslar ishchi faoliyatni boshlashdan avval iqtisodiy muhitni yaxshiroq tushunadi. Masalan, 2022-yilda tadqiqotda ishtirok etganlar orasida taʼlim olgan guruhning 47 foizi oʻz faoliyatini boshlagan boʻlsa, taʼlim olmaganlar orasida bu koʻrsatkich atigi 22 foizni tashkil qilgan. Bu farq biznes taʼlimining iqtisodiy faollikka qanday taʼsir koʻrsatishini yaqqol koʻrsatadi. Ijtimoiy tadbirkorlik orqali olingan daromadlar koʻpincha oilaning asosiy daromad manbaiga qoʻshimcha boʻlib xizmat qiladi. Maqola maʼlumotlariga koʻra, 2021–2023 yillarda ijtimoiy tadbirkorlik bilan shugʻullangan oilalarning daromadi oʻrtacha 28–35 foizga oshgan. Bu ayniqsa past daromadli oilalar uchun sezilarli oʻsish boʻlgan.

“The Contribution Of Small Businesses To Poverty Reduction” nomli tadqiqot kichik biznesning kambagʻillikni kamaytirishdagi samaradorligini global miqyosda oʻrganadi. Tadqiqot natijalariga koʻra, kichik bizneslar nafaqat iqtisodiy faoliyatni tashkil qiladi, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, kichik korxonalar yangi ish oʻrinlarini yaratishda eng muhim vosita hisoblanadi. Masalan, 2018–2022 yillar orasida global miqyosda kichik va oʻrta korxonalar tomonidan yaratilgan ish oʻrinlari bandlik darajasini sezilarli darajada oshirgan. Bu, ayniqsa, qishloq joylarda va past daromadli hududlarda aholining iqtisodiy faolligini ragʻbatlantiradi. Kichik biznes oilalarning daromad manbalarini koʻpaytirishga xizmat qiladi.

³ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishida xorijiy tajriba: Boburmirzo Xursanaliyev Qoʻqon universiteti Ilmiy tadqiqotlar departamenti boshligʻi

Tadqiqotda keltirilishicha, kichik korxonalarda ishlash oilaning oylik daromadlarini oʻrtacha 20–30 foizga oshiradi, bu esa kambagʻillikni sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. Natijada oilaning taʼlim, sogʻliqni saqlash va boshqa ijtimoiy ehtiyojlari qoplanadi.

Kichik bizneslar iqtisodiy inklyuziv oʻsishni ragʻbatlantiradi, yaʼni iqtisodiy faoliyatdan foyda oladigan qatlamlarni kengaytiradi. Bu faqat yirik korporatsiyalar va davlat loyihalariga bogʻliq boʻlmagan, balki mahalliy tadbirkorlar orqali amalga oshadigan iqtisodiy rivojlanishning barqaror modelidir. Tadqiqotdan kelib chiqadiki, kichik biznes faqat daromad manbai emas, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, kambagʻillikni kamaytirish va mahalliy iqtisodiy rivojlanishni taʼminlash vositasi hisoblanadi. Shu sababli davlat siyosati va mahalliy dasturlarda kichik biznesni ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash eng ustuvor vazifalardan biri boʻlishi lozim.

Jahon tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va bozor dinamikasini yaxshilash orqali global iqtisodiy rivojlanishga hissa qoʻshadi. Tadqiqotchilar taʼkidlaydiki, muvaffaqiyatli tadbirkorlik uchun resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy kapital, ilmiy va amaliy tajriba hamda biznes imkoniyatlarini aniqlash muhimdir. Shu nuqtai nazardan, kichik biznesni rivojlantirishning asosiy omillari — moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, ijtimoiy kapital, taʼlim, innovatsiyalar va davlat siyosatidir. Adabiyotlarni tahlil qilganda shuni koʻrish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir qator ichki va tashqi omillarga bogʻliq. Ichki omillar sifatida tadbirkorlarning bilim va tajribasi, innovatsion yondashuv, moliyaviy savodxonligi, shaxsiy motivatsiyasi muhim hisoblanadi. Tashqi omillar esa davlat siyosati, moliyaviy va texnik qoʻllab-quvvatlash, mahalliy infratuzilma, bozor sharoiti va ijtimoiy kapitalni oʻz ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, kompleks va integratsiyalashgan yondashuv asosida kichik biznesni rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarini aniqlash va ularning mahalliy iqtisodiyotga taʼsirini baholashdir. Shu maqsadda tadqiqotda empirik tahlil usulidan foydalandik. Empirik tahlil usuli yordamida biz viloyatdagi tadbirkorlik subyektlarining real faoliyatini, ish oʻrinlari sonini, daromadlarni oshirish imkoniyatlarini va mahalliy aholi bilan iqtisodiy munosabatlarini tahlil qildik. Bu usul tadqiqotga amaliy jihat beradi va nafaqat nazariy, balki amaliy koʻrsatkichlarni ham oʻrganishga imkon yaratadi. Maʼlumotlarni yigʻishda biz birlamchi manbalar va ikkilamchi manbalardan foydalandik. Birlamchi manbalar sifatida Surxondaryo viloyatidagi kichik va oʻrta biznes subyektlari rahbarlari bilan olib borilgan soʻrovnoma va intervyular ishlatilgan. Shu orqali tadbirkorlarning biznesni rivojlantirishdagi asosiy muammolari, moliyaviy qoʻllab-quvvatlash zaruriyati va hududiy rivojlanishga qoʻshgan hissasi haqida toʻliq maʼlumotlar olindi.

Surxondaryo viloyatida 150 ta kichik va oʻrta biznes subyektlari rahbarlari bilan olib borilgan soʻrovnoma va intervyular. Savdo, xizmat va ishlab chiqarish sohalaridagi tadbirkorlarning faoliyati, moliyaviy qoʻllab-quvvatlash zaruriyati va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga taʼsiri oʻrganildi. Ikkilamchi manbalarda Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi (2023-yil hisobotlari) maʼlumotlari: viloyatda kichik biznes subyektlari soni 12.500 dan ortiq boʻlib, ular 48 mingdan ziyod ish oʻrnini taʼminlaydi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlar, masalan, “The Contribution Of Small Businesses To Poverty Reduction” va “The Role of Business Education in Promoting Social Entrepreneurship and Poverty Alleviation in Low-Income Communities”

maqolalaridan foydalanildi. Empirik tahlil va so'rovnomalar yordamida viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi: moliyaviy qo'llab-quvvatlash, biznes ta'limi, innovatsion g'oyalarni joriy qilish va ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish. Shu natijalar asosida hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyatida kichik biznes subyektlari orqali 2023-yilda 5.200 oilaning daromadi sezilarli darajada oshgan va kamida 2.300 yangi ish o'rni yaratilgan. Bu esa viloyatdagi kambag'illikni kamaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida so'nggi yillarda sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, viloyat iqtisodiyotida kichik biznesning ulushi tobora ortib bormoqda va bu ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadini oshirish hamda kambag'illikni kamaytirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. So'nggi besh yil ichida (2018–2025) viloyat bo'yicha kichik biznes subyektlari soni 2,5 barobar oshib, 42 mingdan ortiq faol korxonalar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilaviy korxonalar soni ham 6 mingdan 15 mingga ko'paydi. Ularning asosiy faoliyati savdo, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish sohalarida jamlangan.



Keltirilgan statistik ma'lumotlar 2020–2025 yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotida barqaror va muhim o'rin egallab kelayotganini yaqqol namoyon etadi. Ushbu davr mobaynida kichik biznesning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham rivojlanib borayotganini kuzatish mumkin. Avvalo, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 76–78 foiz oralig'ida saqlanib qolganligi uning mehnat bozoridagi yetakchi mavqeini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich kichik biznes aholining katta qismini ish bilan ta'minlayotganini, yangi ish o'rinlari yaratishda asosiy mexanizm vazifasini bajarayotganini anglatadi. Ayniqsa, 2021 va 2025 yillarda ulushning 78 foizdan yuqori bo'lishi tadbirkorlik faoliyati kengayganini hamda iqtisodiy faollik oshganini ko'rsatadi.

Bandlikning yuqori darajada saqlanishi ijtimoiy barqarorlik, daromadlarning shakllanishi va o'rta sinfning kengayishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi ham barqaror yuqori darajada — 76–78 foiz atrofida saqlanib kelmoqda. Bu esa kichik biznes mamlakat yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini shakllantirayotganini bildiradi. 2022–2023 yillarda kuzatilgan nisbiy pasayish tashqi va ichki iqtisodiy omillar ta'siri bilan izohlanishi mumkin, biroq 2024 yildan boshlab yana o'sish tendensiyasining tiklanishi ushbu sektorning moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ko'rsatadi. Mazkur barqarorlik kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi mustahkam institutsional o'rnini tasdiqlaydi.

Sanoat mahsulotlari va xizmatlar ishlab chiqarishdagi ulush esa yanada dinamik xarakterga ega. 2022 yilda 42,4 foizgacha pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda keskin o'sish qayd etilib, 2025 yilga kelib 65,3 foizga yetgan. Bu holat kichik biznesning ishlab chiqarish jarayonlariga faolroq kirib borayotganini, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari kuchayganini anglatadi. Ayniqsa, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi ushbu o'sishga turtki bo'lgan bo'lishi mumkin. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlik subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri sifatida shakllangan. Ular bir vaqtning o'zida bandlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulotni shakllantirish hamda sanoat va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali iqtisodiy o'sishning muhim drayveri vazifasini bajarmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarning barqarorligi kichik biznesning iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilar:

Davlat qo'llab-quvvatlashi – Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kreditlar orqali tadbirkorlarni rag'batlantirish natijasida ko'plab yosh tadbirkorlar faoliyat boshladi. Masalan, oxirgi uch yil ichida viloyatda soliqlarni qisqartirish va soddalashtirilgan tartib joriy qilinishi natijasida 2 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Moliyaviy imkoniyatlar va mikrofinans xizmatlari – Kichik biznes subyektlari, ayniqsa ayollar va yoshlar, mikrokreditlar orqali o'z faoliyatini kengaytirib, oilaviy daromadlarini oshirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mikrokredit olgan tadbirkorlarning 70 foizi yil davomida daromadini sezilarli darajada oshirgan.

Ta'lim va biznes ko'nikmalari – Hududdagi kasb-hunar maktablari, markazlar va seminarlar tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa tadbirkorlarni ijtimoiy tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga undaydi va past daromadli oilalarning iqtisodiy faolligini oshiradi.

Mahalliy bozor va infratuzilma – Viloyatda kichik biznes subyektlarini ishlab chiqarish va savdoga jalb qiladigan bir nechta sanoat va xizmat ko'rsatish markazlari faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, hududiy bozorlarda tadbirkorlar mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga yetkazish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi:

- Kichik biznesning eksport salohiyati hali to'liq rivojlanmagan.
- Ba'zi ruxsat berish tartiblari va nazorat mexanizmlari murakkab va samarasiz bo'lib qolmoqda.

• Mahalliy tadbirkorlar innovatsion faoliyatni rivojlantirishda moliyaviy resurslar yetishmovchiligi bilan duch kelmoqda.

Natijada, Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ijobiy tendensiyada bo'lsa-da, uni yanada kengaytirish uchun davlat tomonidan moliyaviy va ma'muriy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, mikrokredit imkoniyatlarini kengaytirish va tadbirkorlik bo'yicha ta'limni rivojlantirish zarur. Bu esa viloyatning iqtisodiy barqarorligi, ish o'rinlari yaratish va aholining daromadlarini oshirishga bevosita hissa qo'shadi.



Faol korxonalar soni o'sishi - 2018 yilda Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni taxminan 16 500 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich **42 000 taga yetishi kutilmoqda**.

Shu davr mobaynida o'sish sur'ati taxminan 155% ni tashkil qiladi. Eng tez rivojlangan tarmoqlar — savdo, xizmat ko'rsatish va oilaviy tadbirkorlik.

Yaratilgan ish o'rinlari - 2018 yilda kichik biznes orqali yaratilgan ish o'rinlari 12 000 bo'lgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich **30 000–32 000 ish o'riniga yetadi**. Bu esa viloyat aholisi bandligini oshirish va kambag'illikni kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti

Savdo va xizmat ko'rsatish sohalari eng yuqori o'sish sur'ati bilan ajralib turadi. Bu tarmoqlar aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish va viloyatdagi turizm salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Oilaviy tadbirkorlik va kichik ishlab chiqarish sohalari esa iqtisodiy inklyuzivlikni oshiradi. Ular asosan hunarmandchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish va kichik ishlab chiqarish korxonalarini o'z ichiga oladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash omillari

- Soliq imtiyozlari va yengil kreditlar tadbirkorlar uchun asosiy rag'bat hisoblanadi.
- Mikrokreditlar orqali yoshlar va ayollar tadbirkorligi rivojlantirilmoqda.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mahalliy va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirish, shuningdek innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Muammolar va rivojlanish istiqbollari

- Qolaversa, eksport salohiyati va raqamli iqtisodiyotga integratsiya masalalari hali ham to'liq hal qilinmagan.

- Ruxsat berish tartiblari va ma'muriy to'siqlar ayrim tadbirkorlar faoliyatini cheklab qo'yimoqda.

2018–2025 yillar davomida Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tez sur'at bilan o'sib, viloyat iqtisodiyotida muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Ish bilan ta'minlash ko'rsatkichlari oshib, mahalliy aholi farovonligi va kambag'illikni kamaytirishga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, soha rivojlanishi uchun davlat qo'llab-quvvatlashi va innovatsion faoliyatni kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa va takliflar

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishi so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi. 2018–2025 yillar davomida faol korxonalar soni sezilarli ortib, oilaviy korxonalar ham o'sish ko'rsatkichini namoyon etdi.

Bu esa viloyat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, aholining daromad manbalarining ko'payishiga va hududdagi ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga yordam berdi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, bu o'sish asosan davlat tomonidan yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhiti, soliq va moliyaviy imtiyozlar, shuningdek, kredit va subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlashning natijasidir. Shu bilan birga, viloyatdagi mehnat resurslarining ko'pligi, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayishiga turtki bo'lmoqda.

Biroq, sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, marketing va moliyaviy savodxonlikni oshirish, shuningdek, bozorni chuqur tahlil qilish kabi muammolar hali ham mavjud. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surish mumkin.

Avvalo, moliyaviy va kredit qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Bu maqsadda kichik biznes va oilaviy korxonalarga qulay mikrokreditlar, subsidiyalar va grantlarni ko'paytirish lozim.

Shuningdek, tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish ham muhim hisoblanadi. Yoshlar va ayollar uchun seminarlar, treninglar va maxsus kurslar tashkil etish, ularni biznesni boshlashga tayyorlash ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bozor va infratuzilmani rivojlantirish orqali mahsulotlarni hududiy va xalqaro bozorlarga yetkazish mexanizmlarini yaxshilash, shuningdek, savdo va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Kichik biznes korxonalarida elektron tijorat, raqamli marketing va hisob-kitob tizimlarini keng qo'llash korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Bundan tashqari, nazorat va ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish orqali byurokratik to'siqlarni kamaytirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ma'muriy xizmatlarni optimallashtirish lozim. Ijtimoiy jihatlarni qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar, ayollar va kam daromadli qatlamlar uchun tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, hududiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shu yoʻnalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qoʻllabquvvatlanishida xorijiy tajriba: Boburmirzo Xursanaliyev Qoʻqon universiteti Ilmiy tadqiqotlar departamenti boshligʻi
2. Andre Van Stel. 09.02.2007. The Effect of Business Regulations on Nascent and Young Business Entrepreneurship.
3. Gulnoz Iskandarovna. 2022, Methodology of comparative analysis. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", No 1 (42), 180-189
4. John Lester. Policy Interventions Favouring Small Business: Rationales, Results and Recommendations. University of Calgary. The School of Public Policy Publications
5. José Luis Polo-Otero. Are the business regulations creating new entrepreneurship? Contaduría y Administración 65 (2), 2020, 1-21.
6. Liang Tan va Boon-Chye Li. Small and Medium Enterprises in Singapore and the New Economy. LEE, Boon Chye and TAN, Wee Liang. Small and Medium Enterprises in Singapore and the New Economy. (2002). The Role of SMEs in National Economies in East Asia. 374-369. Research Collection Lee Kong Chian School Of Business.
7. Maxmudova D. Davlat tomonidan kichik biznesni tartibga solish va qoʻllab quvvatlashda xorij tajribasi. International scientific journal volume I issue 7.
8. Morris Wright. 03.06.2023. Qiyosiy tadqiqot usuli: xususiyatlari, bosqichlari. ([tps://uz.warbletoncouncil.org/metodo-comparativo-15644](https://uz.warbletoncouncil.org/metodo-comparativo-15644)).